

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14688622>

## ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARIDA JAROHATLANISH, KASB KASALLANISH VA AVARIYA HODISALARI PROGNOZINI ISHLAB CHIQISH

**Safarboyeva Gulniso Ilhom qizi**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Hayot faoliyat xavfsizligi kafedrası

Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo‘nalishining 2-kurs talabasi

[gulnisosafarboyeva4@gmail.com](mailto:gulnisosafarboyeva4@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ishlab chiqarish jarayonlarida jarohatlanish, kasallanish va avariya hodisalari prognozini ishlab chiqish, mehnat xavfsizligi va sog‘liqni saqlashda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jarohatlar, kasalliklar, kasb kasalliklar va avariya holatlarini oldindan prognozlash, xavflarni minimallashtirish va ishchilarning xavfsizligini ta‘minlash uchun samarali choralar ko‘rib chiqishdir. Maqolada, statistik ma‘lumotlar va mehnat xavfsizligi tizimlaridan foydalanib, turli ishlab chiqarish sohalarida yuzaga keladigan xavflar aniqlangan. Prognozlash jarayonida inson faktorini, texnik nuqsonlarni hamda tashqi omillarni hisobga olish juda muhim hisoblanadi. Shuningdek, ishchilarga yo‘riqnomalar berish hamda attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlari ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** jarohatlanish, kasb kasalliklar, prognozlash, avariya hodisa, xavflar, omillar.

### ABSTRACT

*In manufacturing processes, the development of a forecast of injury, morbidity and accident events takes an important place in Occupational Safety and health. The main purpose of this article is to provide an advance forecast of possible injuries, illnesses, occupational diseases and accidents in production processes, minimizing risks and taking effective measures to ensure the safety of workers. The paper uses statistics and occupational safety systems to identify the risks that occur in various manufacturing sectors. In the process of forecasting, it is considered very important to take into account the human factor, technical defects, as well as external factors. The process of instructing workers as well as attestation is also considered.*

**Keywords:** injury, occupational diseases, forecasting, accident phenomenon, risks, factors.

## KIRISH

**Jarohatlanish** - bu organizmning biror qismining zararlanishi yoki shikastlanishiga aytiladi. Jarohatlangan joyda og‘riq, qon ketish hamda harakatsizlik belgilari ko‘riladi.

**Kasallanish** – bu organizmning sog‘liq holatining buzilishi, biror infeksiya sababli organizmda o‘zgarishlar ro‘y berishi. Kasallanishning ko‘plab turlari mavjud, bularga yurak kasalliklari, depressiya, diabetlarni misol tariqasida keltirsak bo‘ladi.

**Avariya hodisalari** – odamlar va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi hamda kutilmaganda noxush hodisalarning ro‘y berish jarayoni. Avariya hodisalari ko‘pincha texnologik, tabiiy, transport va inson faoliyatlari orqali bo‘lishi mumkin.

**Prognoz** – kelajakda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan voqea yoki hodisalar haqida oldindan taxmin qilish.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston Respublika iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan barcha korxonalarining foyda ko‘rish maqsadida, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishi yoki xizmat ko‘rsatishini talab etadi. Davlatimizning iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishida muhim omillar bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida yuz beradigan jarohatlanishlar va boshqa shu kabi zararlanishlarni ortishni kamaytirishni ta‘minlash bilan birga mamlakatda faoliyat yuritayotgan har bir korxonada, firma, kompaniyalarning xo‘jalik subyektlari sifatida rivojlantirishni taqozo etadi. Ishlab chiqarishda jarohatlanish (grekcha Traum a-yara) deb odam organizmga ishlab chiqarish omillarining xavfli ta‘siri natijasida, ya‘ni baxtsiz hodisa tufayli organizmning biror qismining zararlanishi yoki shikastlanishi va ishlash faoliyatining buzilishiga aytiladi. Bularga misol tariqasida (lat yeyish, kesib olish, sinish, chiqish va boshq.), kim-yoviy (kislota va ishqorlar ta‘sirida kuyish), termik (odam organizmga yuqori yoki past harorat ta‘sir etib, kuyish yoki sovuq urishi), elektrdan kuyish, tok urishi va boshqa psixologik (qattiq hayajonlanish, qo‘rquv va boshq.).



1- Rasm. Ishlab chiqarishda jarohatlanish.


Jarohatlanish natijasida odam ish qobiliyatini vaqtinchalik yoki doimiy yo'qotishi ehtimoli ham mavjud. Ishlab chiqarishdagi kasallanishlar kasbiy va umumiy kasallanishlar noqulay ish sharoitlaridan kelib chiqadi. Kasbiy kasalliklar zararli ishlab chiqarish omillari ta'siridan kelib chiqadi. Ular vaqtinchalik, uzoq vaqtgacha yoki umuman ish qobiliyatini yo'qotishga ya'ni nogironlikka ham olib kelishi yuqori o'rinlarda turibdi. Kasb kasalliklarining ayrim hollarda kasbiy zaharlanish deb yuritiladi (o'tkir yoki surunkali). Kasbiy kasallik-kasbiy zararli omil sababli rivojlanadigan, ishlab chiqarish sharoitlarida rivojlanishi mumkin bo'lgan va ilmiy isbotlangan kasallik hisoblanadi. N.F.Izmerov tadqiqotiga ko'ra ishlovchining sog'ligiga xavf soluvchi, kasalliklarning rivojlanish ehtimolini oshiruvchi, ularning avj olishini va noxush tugallanishiga atrof-muhitning har xil kimyoviy, fizik, biologik, ekologik, iqlimiy (ovqatlanish, ichimlik suvi bilan ta'minlanish, turmush va dam olish sharoitlarini, stress va boshqa holatlar) va boshqa omillar sabab bo'lishi mumkin. Kasbiy zararli omillar ishlab chiqarish jarayonida uning texnologiyasi va asbob uskunalari bilan (kimyoviy toksik moddalar, ishlab chiqarish chang, nurlanish manbalari, shovqin va vibratsiya, past va yuqori atmosfera bosimi, past va yuqori harorat, infraqizil, ultratovush, elektromagnit, lazer nurlanishlar va boshqalar) va shuningdek, mehnat jarayoni, uni tashkil qilish og'irligi va davomiyligi bilan (asab tizimi, ko'rish a'zosi, eshitish a'zosi, ovoz boylamlarining zo'riqishi, tez-tez bir xilda bajariladigan harakatlar, ma'lum bir guruhdagi mushaklarning zo'riqishi, tananing majburiy holati va boshqalar) bog'liqdir. Kasb kasalliklari 2ta guruhga bo'linadi: 1-guruhga faqat kasb kasalliklarining o'zi kiradi. Bunda xastaliklarni keltirib chiqaradigan omillar asosiy o'rin tutadi. Bu kasalliklar faqat ishlab chiqarish sharoitlarida rivojlanadigan kasallik. Bu guruhga sillikoz, benzol va qo'rg'oshin ta'siridan kelib chiqadigan zaharlanishlarni misol qilsak bo'ladi. 2-guruhga o'ziga xos bo'lmagan (nospetsifik) kasb kasalliklari kiradi. Bu guruhga esa bronxial astma, ensifema va sil kasalligini kiritsak bo'ladi. Kasb kasalliklarini aniqlashda quyidagi qonun qoidalarga amal qilish zarur bo'ladi:

1. Bemorni kasbini to'liq tahlil qilish va mehnat faoliyati jarayonida ishchiga zararli omillarning nechog'li tasir ko'rsatishini, ularni ta'sir qilish muddati, shuningdek ilgari boshdan kechirgan umumiy yoki kasbga oid kasalliklarni aniqlash kerak.
2. Bemorning bajaradigan ishining va mehnat sharoitlarining sanitariya-gigiyenik tavsifi bilan tanishish lozim.
3. Bemordan olingan ma'lumotlar rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.
4. Maskur kasb kasalligida kuzatiladigan, lekin umumiy kasalliklarda ham uchrab turadigan nospetsifik klinik belgilarni hisobga olib (masalan, qo'rg'oshin va organik moddalar tasiridan kelib chiqqan kasalliklarga alohida kamqonlik alomatlar va boshqalar).

5. Ayrim kimyoviy moddalarga nisbatan organizmning o'ziga xos reaktivligini teri orqali aniqlash.

6. Patalogik jarayonning dinamik rivojlanishini o'rganish, ya'ni zararli omilning ta'siri to'xtatilgandan keyin g'ayritabiiy yo'qolish va boshqalar.

## NATIJALAR



1-diagramma. 2018-2022-yillarda sodir bo'lgan O'zbekistondagi baxtsiz xodisalar ulushi.

2020-yilda koronavirus pandemiyasiga qaramasdan ishlab chiqarish jarayonlarida baxtsiz hodisalar oshganligi qayd qilingan. Bu Davlat mehnat inspeksiyasining hisobotida aks etgan. 2020-yil davomida respublikada ushbu ko'rsatgich 607 tani (107 taga ko'paygan) tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda ishlab chiqarish bilan bog'liq baxtsiz hodisalar 500 ta bo'lgan. Baxtsiz hodisalar oqibatida 693 nafar xodim jabrlangan bo'lib, shundan 201 nafar xodim halok bo'lgan, 457 nafari og'ir va 35 nafari yengil tan jarohati olgan.

Tarmoqlar	Umumiy soni	Vafot etganlar soni	O'gir tan jarohat olganlar soni
Sanoatda	101 ta	23	80
Qurilishda	82 ta	31	51
Qishloq xo'jaligida	18 ta	12	15

1-jadval. 2020 yilda tarmoqlar kesimida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar.

## MUHOKAMA

Respublika bo'yicha kasb kasalligi hisobida turgan bemorlar soni 2019-yil 4716 kishini, 2020-yilda esa 4759 kishini tashkil etgan. 2020 yilda kasb kasalligi aniqlangan 43 nafar bemorning 40 nafari sanoatga to'g'ri kelgan. Fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, ish beruvchilarga mehnat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini qo'llanilishi yuzasidan jami 7065 ta targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Shundan 1371 ta ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilgan, 4040 ta ish beruvchilar bilan joylarda

seminarlar o'tkazildi, 1683 marotaba ishonch telefon orqali tushuntirishlar berildi Kasbiy kasallanish darajasini pasaytirishga qaratilgan ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar, tasdiqlangan tavsiyalar, usullar va chora-tadbirlar, shu jumladan, tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan kafolatlangan majburiyatlar, erta pensiyaga chiqishning qonuniy huquqi, fuqarolarning mehnatga layoqatli bo'lish majburiyatlari tavsiflangan. Ish beruvchi shart-sharoitlarni maxsus baholanadi. Shu bilan birga, kasbiy kasallanish darajasi xodimlarning sog'lig'ini saqlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish sifatining uzoq muddatli ko'rsatkichidir. Real vaqt rejimida ish samaradorligini va amalga oshirilgan chora-tadbirlarning etarliligini sifat jihatidan baholash mumkin emas, chunki ishchilarning butun ishchi avlodi o'zgarishini kutish kerak.

### XULOSA

Jarohatlanish, kasb kasallanishi va avariya hodisalarining oldini olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida xavf-xatarlarni aniqlash va baholash juda muhim hisoblanadi. Prognozlashtirish va xavfsizlik choralari belgilash orqali, nafaqat ishchilarning sog'lig'ini himoya qilish, balki ishlab chiqarishning samaradorligini ham oshirish ko'zda tutilgan. Bunday prognozlar, ilg'or texnologiyalar, malakali mutaxassislar va tizimli yondashuvlar yordamida ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek, barcha xodimlar uchun muntazam xavfsizlik treninglari, sog'liqni saqlashni nazorat qilish va ish joylarida xavfsizlik madaniyatini yaratish lozim hisoblanadi. Bu esa korxonaning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlashga juda katta yordam beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O.D. Rahimov, I.X Siddiqov, M.O Murodov. Hayot faoliyat. Ekologiya. Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlari uchun darslik. T.: "Aloqachi", 2017-332
2. "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida"gi qonun. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008, 37-38- son.
3. SH.K. Maxmudova "Kasb kasalliklari" T., 2011 y.
4. Rustamjonov Nu'monjon Dilshodjon o'g'li "Kasb kasalliklari" Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities Volume 6, May, 2022
5. Nurmuxammedova M.X., Nazarova X.A, Gigiyena T., 2007 y
6. 3. Уринова С., Абдурахманов А. "Мониторинг безопасности рабочих в теплицах" "Дальневосточная весна-2021". Материал 19-й Международной научно-практической конференции по проблемам и безопасности Россия Федератсия Хабаровского края (г. Комсомолск-на-Амуре, Россия, 30-31 марта 2021г.
7. Bakiev A., Kamalov M., Sagdullaev N. "Vozdel'vaniya rannyykh ovozhchey v teplytsakh i pod plenkoy". Tashkent, Uzbekistan, 1973, 58